

**“GIPOTIREOZ BILAN OG‘RIGAN AYOLLARDA GORMONAL DISBALANSNING
REPRODUKTIV TIZIMGA TA’SIRI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA
PROFILAKTIK CHORALAR”**

Yo’ldosheva N.T.

Xolova Z.B.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Termiz filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18341282>

Mavzuning dolzarbligi

Gipotireoz reproduktiv yoshdagi ayollarda uchraydigan muhim endokrin kasalliklardan biri bo‘lib, hayz sikli buzilishlari, ovulyator disfunksiya va bepushtlik rivojlanishiga olib kelishi bilan ahamiyatlidir.

Endemik hududlar, xususan Surxondaryo viloyatida yod tanqisligining keng tarqalganligi gipotireoz bilan bog‘liq reproduktiv buzilishlar chastotasining ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, psixoemotsional stress, ekologik omillar, noto‘g‘ri ovqatlanish va kimyoviy moddalarga ta’sir qalqonsimon bez faoliyatini yanada susaytirib, reproduktiv asoratlar rivojlanish xavfini oshiradi. Ushbu holatlar gipotireozni erta aniqlash va profilaktik choralarni takomillashtirish zarurligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi

Surxondaryo viloyatida gipotireoz bilan og‘rigan ayollarda yuzaga keladigan gormonal o‘zgarishlarning reproduktiv tizimga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan yangi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqot Surxondaryo viloyatining birlamchi davolash profilaktika muassasalari va ixtisoslashtirilgan markazlarida kuzatuv ostiga olingan 18-45 yoshdagi 100 nafar reproduktiv yoshdagi ayollar orasida o‘tkazildi.

Tekshiruv davomida klinik-anamnestik ma’lumotlar, gormonal ko‘rsatkichlar (TRG, T3, T4, prolaktin), UTT, hayz sikli holati, va ginekologik anamnez baholandi. Olingan natijalar statistik tahlil qilindi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hayz sikli buzilishlari ayollarning 65 % ida aniqlanib, ularning 40 % ida oligomenoreya, 15 % ida amenoreya, 10 % ida esa menorragiya va dismenoreya qayd etildi.

Reproduktiv tizimda endometriy qalinligining o'zgarishi, follikulalar rivojlanishining susayishi hamda ayrim hollarda tuxumdon kistalarining mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqot ishtirokchilarining 20 % ida gipotireoz bilan bog'liq bepushtlik xavfi aniqlanib, ushbu ko'rsatkich uzoq muddat davolanmagan gipotireoz bilan og'rigan ayollarda yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Xulosa

Gipotireoz ayollarda hayz sikli buzilishlari, ovulyator disfunksiya va bepushtlik rivojlanish xavfini oshiruvchi muhim endokrin kasalliklardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari gipotireozni erta aniqlash, endokrinolog va ginekolog tomonidan kompleks yondashuv asosida kuzatuv olib borish, yod tanqisligini bartaraf etish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish reproduktiv asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.